



Distinctive features in shaping the social image of a leader

Bobur AKHMEDOV¹

Nordic International University

ARTICLE INFO

Article history:

Received March 2025

Received in revised form

10 April 2025

Accepted 2 April 2025

Available online

25 May 2025

Keywords:

modern leader,
image,
ethics,
conduct,
professionalism,
open communication,
strategy,
management style,
intellect,
communication.

ABSTRACT

This article analyzes the process of forming a leader's social image and the factors influencing this process. Specifically, it highlights how a leader's social image is shaped based on components such as the individual and professional qualities of the leader's personality, the role of mass media, cultural and national characteristics, social expectations, and public opinion. In developing the image of managerial personnel, it is noted that factors such as a leader's ability to make decisions, think creatively, maintain good relationships with the team - in other words, possessing strong leadership abilities - constitute one of the main aspects of image formation.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss5/S-pp329-332>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Rahbar ijtimoiy obrazini shakllantirishdagi o'ziga xosliklar

Kalit so'zlar:

zamonaviy rahbar,
imij,
etika,
xulq-atvor,
professional,
ochiq muloqot,
strategiya,
boshqaruv uslubi,
intellekt,
kommunikatsiya.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada rahbar ijtimoiy obrazining shakllanish jarayoni va bu jarayonga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinadi. Xususan, rahbar shaxsining individual va kasbiy sifatleri, ommaviy axborot vositalari roli, madaniy va milliy xususiyatlar, ijtimoiy kutishlar va jamoatchilik fikri kabi komponentlar asosida rahbarning ijtimoiy obrazi qanday shakllanishi yoritiladi. Rahbar kadrlarni imijini shakllantirishda rahbar qaror qabul qila olishi, kreativ fikrlashi, jamoa bilan yaxshi munosabatda bo'lishi bir so'z bilan aytganda liderlik qobiliyati kuchli bo'lishi kabi omillar imijning asosiy shakllaridan biri ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

¹ Master degree student, Nordic International University.
E-mail: ahmedovbobur874@gmail.com

Особенности формирования социального образа руководителя

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

современный лидер,
имидж,
этика,
поведение,
профессионализм,
открытое общение,
стратегия,
стиль управления,
интеллект,
коммуникация.

В данной статье анализируется процесс формирования социального образа руководителя и факторы, влияющие на этот процесс. В частности, рассматривается, как формируется социальный образ руководителя на основе таких компонентов, как индивидуальные и профессиональные качества личности руководителя, роль средств массовой информации, культурные и национальные особенности, социальные ожидания и общественное мнение. Отмечается, что при формировании имиджа руководящих кадров такие факторы, как способность руководителя принимать решения, креативное мышление, хорошие отношения с коллективом, одним словом, сильные лидерские качества, являются одной из основных составляющих имиджа.

Rahbarning ijtimoiy obrazi uning boshqaruvdagi samaradorligi va tashkilotdagi mavqeini belgilovchi muhim omildir. Rahbar obrazining shakllanishi nafaqat uning shaxsiy xususiyatlari, balki jamiyat va tashkilotdagi o'zaro munosabatlar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Bu jarayon ko'plab omillar va o'ziga xosliklarni o'z ichiga oladi, ular rahbarning yetakchilik qobiliyati va kommunikativ salohiyatini belgilaydi. Zamonaviy boshqaruv tizimlarida rahbar imiji o'zining muhimligini bilan ajralib turadi. Tashkilotdagi rahbarning imiji uning ish faoliyatiga, jamoadagi ta'siriga va tashkilotning umumiy muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qiladi. "Rahbar imijining shakllanishi faqat tashqi ko'rinish yoki kiyim tanlovi bilan cheklanmaydi, balki uning xulq-atvori, qarorlar qabul qilish uslubi, kommunikatsiya usullari va boshqaruv qobiliyatlarini ham o'z ichiga oladi"[1].

Rahbar obrazini shakllantiruvchi asosiy omillar: a) shaxsiy fazilatlar-halollik, mas'uliyatlilik, kommunikativlik, liderlik qobiliyati, qaror qabul qilishdagi qat'iylik bular rahbarning ijtimoiy obrazida hal qiluvchi rol o'ynaydi, b) ommaviy axborot vositalari roli – televideniye, internet, ijtimoiy tarmoqlar orqali rahbarning faoliyati, nutqlari, tashabbuslari yoritilishi jamiyat ongida unga nisbatan ijobiy yoki salbiy obrazning shakllanishiga olib keladi, c) milliy va madaniy omillar – har bir jamiyatda rahbar shaxsiga qo'yiladigan talablar mavjud. Masalan, Sharq jamiyatlarida rahbardan adolat, kamtarlik va mehr-muruvvat kutilsa, G'arbda samaradorlik, pragmatizm va innovatsion yondashuv afzal ko'riladi, d) Ijtimoiy kuzatishlar – jamiyat rahbardan nafaqat boshqaruvchilik, balki ma'naviy yo'l-yo'riq ko'rsatishni, muammolarga yechim topishni, adolat bo'lishni kutadi. Rahbar imiji, birinchi navbatda, rahbarning tashqi ko'rinishi, xulq-atvori, boshqaruv uslubi va ularga bo'lgan munosabatlar orqali tashkilotdagi o'rnini belgilaydi. Bu esa rahbarning samarali boshqaruv uchun zarur bo'lgan xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Rahbar imijining shakllanishi boshqaruv jarayonining samaradorligini oshiradi va tashkilot ichidagi ishonchni mustahkamlaydi. Imij nafaqat tashqi ko'rinishni, balki rahbarning boshqaruv strategiyalarini, qarorlar qabul qilish uslublarini, kommunikatsiya usullarini ham o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, rahbarning o'ziga bo'lgan

ishonchi va jamoaga nisbatan mehr-muhabbati uning imidjini shakllantiradigan asosiy omillardan biridir. Rahbar ijtimoiy obrazining shakllanishidagi asosiy o'ziga xosliklardan biri — uning kommunikativ ko'nikmalari hisoblanadi. “Samarali aloqa rahbarga xodimlar bilan mustahkam ishonch va o'zaro hurmat muhitini yaratishga yordam beradi” . Shu bilan birga, rahbarning jamoaviy faoliyatdagi roli, uning tashabbuskorligi va mas'uliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyati uning ijtimoiy obrazini yanada mustahkamlaydi. Avvalambor “rahbarlarning emotsional intellekti yuqori bo'lishi kerak. Bu, ularning o'z xulq-atvorlarini nazorat qilish, jamoa a'zolarining his-tuyg'ularini tushunish va samarali aloqalarni o'rnatishda yordam beradi. Emotsional intellekt rahbarning kuchli imijini yaratish uchun zarur bo'lgan xususiyat hisoblanadi”[2]. Zamonaviy rahbarlar, o'z jamoalariga mas'uliyatli yondashuvni ko'rsatib, ijtimoiy mas'uliyatni his qilishlari zarur. Ularning imiji ijtimoiy qadriyatlar va tashkilotning ijtimoiy mas'uliyatini qabul qilish orqali yanada mustahkamlanadi. Rahbar inson o'z qarorlarini ochiq va shaffof qilishi zarur. Bu rahbarning imijini mustahkamlashga yordam beradi va jamoaning ishonchini oshiradi. “Zamonaviy boshqaruvda shaffoflik nafaqat ichki, balki tashqi muloqotlarda ham katta ahamiyatga ega”[3]. Rahbar imijini shakllantirishning asosiy elementlari bu tashqi ko'rinish va xulq-atvordir. Zamonaviy rahbarning tashqi ko'rinishi professional va tartibli bo'lishi kerak. Kiyim-kechak va jismoniy holat rahbarning jamoa tomonidan qanday qabul qilinishiga ta'sir qiladi. Shuningdek, rahbarning xulq-atvori uning jamoa a'zolari bilan bo'lgan munosabatini belgilaydi. Samimiylik, hurmat va etikaga asoslangan xulq-atvor rahbarning imijini yaratib beradi. Rahbar uchun eng muhim belgilardan yana biri aniq qaror qabul qila olishdir. Zamonaviy rahbarlar samarali va mantiqiy qarorlar qabul qilishda yuqori ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim. Boshqaruvda, rahbarning aniqlik bilan qarorlar qabul qilish qobiliyati uning imijini mustahkamlab beradi. Rahbarlar o'zaro muloqot jarayonida o'z fikrlarini aniq va samarali tarzda ifodalashlari kerak. Ijobiy va ochiq muloqot rahbarning jamoaga qanday ta'sir qilishini belgilaydi. Bu, ayniqsa, rahbarning imijini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan omil hisoblanadi.

“Rahbar imijini shakllantirishdagi asosiy strategiyalar: O'z-o'zini tahlil qilish, yangi bilimlar va tajriba orttirish, jamoa bilan ochiq muloqot qila olishdir” . Rahbarning imijini yaratishda birinchi qadam o'z-o'zini tahlil qilishdan boshlaydigan bo'lsak, bu rahbar o'zini kuchli va zaif tomonlarini anglash, shuningdek, ularni qanday rivojlantirishni aniqlashni talab qiladi. Zamonaviy rahbarlar doimiy ravishda o'z malakalarini oshirib, yangi bilimlarga ega bo'lishlari zarur. Bu, rahbarning o'z imijini rivojlantirishga yordam beradi va boshqaruv uslublarini zamonaviy talablar asosida yangilashni ta'minlaydi. Rahbar imijini shakllantirishda jamoa bilan samarali muloqot qilish ham muhim rol o'ynaydi. Jamoa bilan ochiq aloqada bo'lish, ularning fikrlarini tinglash va o'zgarishlarga moslashish rahbarning ishonchli imijini yaratishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, rahbar ijtimoiy obrazining shakllanishi ko'plab o'ziga xosliklarni o'z ichiga oladi – bu nafaqat uning shaxsiy fazilatlar va boshqaruv uslubiga, balki ommaviy axborot vositalaridagi yoritilishiga, madaniy qadriyatlarga va jamoatchilik kutishlariga bog'liq murakkab jarayondir, jumladan, kommunikativ qobiliyatlar, professional bilim, boshqaruv tajribasi va axloqiy tamoyillar ham shular jumlasidandir. Ushbu omillar rahbarga jamoa ichida yetakchi sifatida o'z o'rnini mustahkamlashga va tashkilotning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shishga imkon beradi. Zamonaviy jamiyatda rahbar shunchaki boshqaruvchi emas, balki jamiyat uchun

namuna bo'lishi lozim. Shuning uchun rahbarlar o'z ijtimoiy obrazini ongli ravishda shakllantirishlari va rivojlantirishlari muhimdir. Shu bilan birga, rahbarning ijtimoiy mas'uliyatini his etishi va ijtimoiy qadriyatlarni qabul qilishi uning imijini mustahkamlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Goleman, D. (1995). Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. Bantam Books.
2. Kotter, J. P. (1996). Leading Change. Harvard Business Review Press.
4. Northouse, P. G. (2018). Leadership: Theory and Practice (8th ed.). Sage Publications.
5. Yukl, G. (2013). Leadership in Organizations Pearson.
6. Zenger, J., & Folkman, J. (2002). The Extraordinary Leader: Turning Good Managers into Great Leaders. McGraw-Hill.